



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GUMANITAR FAKULTETI

REFREAT

Mavzu: Axolini ijtimoiy muxofaza qilish siyosati

Bajardi: U. Yodgorova

Qabul qildi: I.Qirg'izov

Farg'ona 2010

Aholini ijtimoiy muxofaza qilish siyosati

Reja:

1. Ijtimoiy siyosat tushunchasi.
2. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish ahamiyati.
3. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish qiyinchiliklar bilan kechadi. Deyarli barcha mamlakatlarda o'tish davrining dastlabki bosqichlarida ishlab chiqarish xajmining pasayishi, ishsizlik darajasining o'sishi, turmush darajasining pasayishi, kishilar hayot farovonlii o'rtasidagi tafovutning kuchayishi kuzatiladi.

Shu sababli bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish bilan bog'liq O'zbekiston modelida markaziy zveno sifatida kuchli ijtimoiy siyosat belgilandi. U eng avvalo aholini adresli himoya qilishni kuzda tutadi. "Eng katta e'tibor haqida tan xam, - deb yozadi Islom Karimov, - muxtoj oilalarga yordam berishga qarashildi. Aholini aniq ijtimoiy himoyalash mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish borasida katta ishlar qilindi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning butun tizimi tengchilik va boqimandalik kayfiyatini tugatishga qaratildi."

Shunga qaramasdan 1991-1995 yillar davomida O'zbekiston aholisining o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari qariyb ikki barobarga pasaydi. Djinni koeffitsiyenti 1991 yilda 0,16 dan 1996 yilda 0,32 gacha usdi. Mintaqalar ortasida, shahar va qishloq ortasida, turli ijtimoiy guruhlar ortasida aholi daromadlari darajasidagi tafovutning kuchayishi kuzatiladi. Masalan, 1997 yilning boshida aholining 22 foizi yoki oilalarning 16 foizi qashshoqlik chegarasidan past darajadagi o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadga ega bo'ldi. O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanishni tavsiflovchi bir qator korsatkichlar 10 va 13-jadvallarda keltirilgan. Mustaqil rivojlanish yillarida ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadli yo'nalishi bo'yicha 2 ta bosqichni ajratib korsatish mumkin: 1991-1994 yillarda mavjud ijtimoiy tizimni o'zgartirish va iqtisodiy islohotlarning borishi darajasiga qarab uni takomillashtirish amalga oshirildi. Ijtimoiy himoya qilishning past samarali shakllari bekor qilindi, aholini ijtimoiy himoya qilish uchun harajatlar byudjeti imkoniyatlariga muvofiq amalga oshirildi va x.k. Bu chora-tadbirlarning asosiy maqsadi aholi daromadlari va birinchi extiyoj mahsulotlari iste'molining keskin pasayishini maksimal darajada oldini otishdan iborat bo'ldi. Bu davr bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichiga to'g'ri keladi,

1995 yildan boshlab umumiy ijtimoiy himoya tizimidan maqsadli va adresli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga o'tish amalga oshirilmogda. Bu davr uchun barqarorlashtirish va aholi turmush darajasi hamda sharoitlarini asta-sekin yaxshilab borish harakterlidir.

Shunday qilib, islohotlarning amalga oshuvi va bozor munosabatlarining rivojlanish darajasiga qarab ijtimoiy siyosatning ustivor yo'nalishlari o'zgarib bordi, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi, tensizlik va qashshoqlikka barxam berish shakllari va usullari takomillashti. Natijada chora-tadbirlarning butun bir tizimi shakllandi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi asosida aholi turli xil qatlamlariga qat'iy tabaqalashgan yondoshuv, ijtimoiy yordamning maqsadli harakteri va adresliliigi, uni amalga oshirishda davlat bilan bir qatorda korxonalar, ijtimoiy tashkilotlar, shu jumladan fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari, xayriya fondlari va boshqa nodavlat

fondlarining qatnashuvi yotadi.

Ijtimoiy himoyaning harakatdagi tizmi aholining turli xil guruhlarini tomonidan olingan daromadlarni davlat tomonidan tartibga solish yo'li bilan tengsizlikning keskin kuchayishi imkoniyatiga barxam berildi. Shu maqsadda kam daromadli, kam ta'minlangan guruhlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va aholining yuqori daromadli qatlami daromadlarining yuqori chegarasini cheklash uchun turli xil yondashuvlardan foydalaniladi. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- pensiyalar va stipendiyalar, byudjet sohasi ishchilari ish xaqining minimal darajalarini muntazam oshirib borish. Masalan, 1996 yil yanvarda minimal ish xaqi 250 so'm bo'lgan bo'lsa, 1997 yil dekabrda 750 so'm bo'lgan bo'lsa, 1997 yil deabrda 750 so'mga teng bo'ldi. Minimal pensiya ushbu davrda 645 so'mdan 1400 sumgacha oshirildi. 1999 yilda yilda minimal ish xaqi darajasi 1320 so'mga yetkazildi.

- kam ta'minlangan bolali oilalarga pul nafaqalarini muntazam berish shaklidagi adresli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. 1997 yil 1 yanvardan boshlab 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga ega barcha oilalarga oylik nafaqa bolalar soniga bog'liq ravishda quyidagi xajmlardan belgilandi:

- bitta bolasi bor oilalarga - minimal ish xaqining 50 foizi miqdorida;
- ikkita bolasi bor oilalarga - minimal ish xaqining 100 foizi miqdorida;
- uchta bolasi bor oilalarga - minimal ish xaqining 140 foizi miqdorida;
- turtta va undan ortiq bolasi bor oilalarga - minimal ish xaqining 175 foizi miqdorida.

1996 yilda davlatdan respublikaning 15 foiz oilasi moddiy yordam oldi. 1997 yilda ushbu maqsadga ajratilgan mablag'lar 25%ga ko'paydi, 40 foiz bolali oilalar moddiy yordam olishdi.

Vaqtincha ishsiz qolgan shaxslarni ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash, kasb tayyorgarligi davomida stipendiya berish bilan bepul o'qitish, ishsiz shaxs oilasidagi har bir boqimanda uchun ishsizlik bo'yicha nafaqalariga 10 foizli ustama to'lash shaklida moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Ma'lumki, har bir tuman, shahar, viloyat va umuman respublikada 2010 yigacha bo'lgan davr uchun aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqqigan edi va bu dasturlar Respublikada tegishli bandlik xizmatlari orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Bandlik xizmatlari 6 yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda, Ular kasb yo'nalishlari bo'yicha bepul maslahatlar beradilar, ishga joylashtiradilar, yangi ishchi urinlari barpo etishga yordam beradilar.

Agar bandlik xizmati organlarida qayd qilingandan so'ng 10 kun davomida ishsizni ishga joylashtirmasalar, u xolda komissiya qaroriga muvofiq u ishsiz deb tan olinadi va qayd etilgan kundan boshlab unga yarim yil davomida nafaqa beriladi. Uning xajmi esa quyidagilarga bog'liq:

- agar kishi birinchi marta ish qidirayotgan bo'lsa, minimal ish xaqining 75 foizidan kam bo'lmagan miqdorda;
- agar kishi bir yildan ortiq vaqt davomida ishlamayotgan bo'lsa, minimal ish xaqining 100 foizi miqdorida;

- agar ishdagi tanaffus bir yildan kam bo'lsa, o'rtacha ish xaqining 50 foizi miqdorida;
- agar kishi ozodlikdan maxrum etilgan joydan qaytsa, minimal oylikning 100 foizi miqdorida;
- harbiy xizmatdan qaytganlar uchun minimal ish xaqining 100 foizi miqdorida;
- mutaxassislikga ega bo'lmaganlar uchun rhinimal ish xaqining 75 foizi miqdorida. Respublika mehnatga layoqatli aholisini bandlik bilan ta'minlovchi asosiy tadbirlar quyidagilardan iborat:
 - aholi bandlik xizmatlari organlari tarmoqlarini tashkil etish;
 - xususiy va kichik korxonalar barpo etish;
 - fermer xo'jaliklari tashkil etish;
 - qishloq tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qo'shimcha yerlar ajratish;
 - xorijiy hamkorlar bilan qo'shma korxonalar tuzish;
 - mavjud korxonalarda yangi ishchilarni joylari barpo etish.

1997 yil sentyabrdan boshlab umumtaniim maktablari, maktab-internatlari, o'rta maxsus va xunar-texnika bilim yurtlari o'qituvchilari ish xaqilariga qo'shimcha xaq joriy qilindi. Bolalar uyi va internatlar tarbiyachilari ish xaqilari 1,2 martaga oshirildi, har yili barcha birinchi sinf o'quvchilariga o'quv buyumlarining to'liq-komplektini sovga tariqasida berish tartibi joriy qilindi. Kam ta'minlangan oilalar boshlangich sinf o'quvchilariga esa qishqi kiyim beriladigan bo'ldi.

Yagona tarif setkasining joriy etilishi va turli xil toifadagi ishchilar ish xaqi miqdorini ish xaqining minimal miqdori bilan bog'lanishi, shuningdek, xo'jalik xisobidagi korxonalar tomonidan ish xaqiga yo'naltiriladigan mablag'larni ishlab chiqarish-xo'jalik faoiyati natijalariga bog'liq ravishda boshqarishning joriy etilishi. Ishlab chiqarish (ish, xizmat) xajmining bir foizga o'sishi ko'rsatilgan mablag'larining 0,7 foizga o'sishiga olib keladi: - jismoniy shaxslar daromadlariga soliq solish. Bu soliq daromad miqdori oshishi bilan o'sib boradi. Bir minimal ish xaqi miqdoridagi oylik daromadga soliq solinmaydi. 1998 yil 1 yanvardan boshlab yangi Soliq kodeksiga muvofiq daromad solig'ining progressivligi kuchayadi. 15 foiz stavka bo'yicha soliq solinadigan birinchi guruh daromadlar minimal ish xaqining uch barobarigacha kengaytirildi va minimal ish xaqining 15 barobaridan ortiq miqdorda daromadga ega shaxslar uchun 45 foizli soliq stavkasi joriy qilindi. Aholini ijtimoiy himoya qilish uchun soliq siyosatidan xam bevosita, xam bilvosita foydalanildi.

Soliq siyosatidan bevosita foydalanish fuqarolar ish haqidan soliq yukining kamayishida ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 24 fevraldagi "Fuqarolar daromadlariga soliq solish darajasini pasaytirish to'g'risidagi" farmoniga muvofiq quyidagilar belgilandi:

- fuqarolar daromadlariga progressiv stavkada soliq solishning eng yuqori darajasini 45 dan 40 foizga qisqartirish;
- sog'liqqa zarar yetkazadigan sharoitlarda band bo'lgan aholi daromadlaridan soliq olish 25 foizdan oshmasligi lozim.

Soliq siyosatidan aholini ijtimoiy himoyalash uchun bilvosita foydalanish quyidagilarda ifodalaniladi. Ma'lumki, qo'shilgan qiymatga soliq va aksiz solig'i egri (bilvosita) soliqlar hisoblanadi. Ular mahsulot chiqaruvchi korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ahvoriga ta'sir ko'rsatmaydi, ular mahsulotning ulgurji narxiga qo'shiladi va davlat byudjetiga o'tkaziladi. Ammo ushbu soliqlar sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari

chakana narxlarining o'sishiga olib keladi. Aholi bu mahsulotlarni aynan qimmat narxda sotib oladi. Shuning uchun respublika rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan chora-tadbirlarda bu soliqlar stavkasi doimo pasaytirilmoqda.

Masalan, qo'shilgan qiymatga soliq stavkasi dastlab 30 foiz darajasida belgilangan edi, 1997 yil 1 yanvardan boshlab esa Xalq iste'moli tovarlarining qator turlari bo'yicha soliq stavkasi 10 foiz darajasida belgilandi. Aksiz soliq stavkasi xam pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda, bir qator Xalq iste'moli moliari esa aksiz solig'i solinadigan tovarlar ro'yxatidan chiqarildi.

Bularning barchasi respublika aholisi tomonidan sotib olinadigan tovarlar va mahsulotlarga bo'lgan chakana narxlarning bir muncha pasayishiga olib kelmoqda. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, soliq siyosati Respublika xukumati tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash uchun qo'llanilmoqda: Xalq imte'moli tovarlari respublika bozorini himoya qilish.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, uning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari boshqa O'rta Osiyo mamlakatlariga nisbatan ancha yuqori. Bu tabiiy ravishda shunga olib keladiki, Sobiq SSSR tarqalgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasida sanoat tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlariga shakllangan narxlar boshqa mamlakatlarga nisbatan past bo'ldi. Natijada respublika iste'moli bozorining mo'tadi! faoliyat ko'rsatishi, tovar va mahsulotlar takchilligining yanada chuqurlasbuvi uchun real xavf-xatar vujudga keldi. Bu esa iste'mol bozorini himoya qiiish bo'yicha zaruriy chora-tadbiri qabul qilishni shart qilib qo'ydi. Bunday chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlarda qabul qilindi:

1. - boj nazoratini joriy qilish va respublikadan chiqarilayotgan tovarlarga boj to'lovlari belgilash;
2. - respublikadan mahsulotlar va tovarlar chiqarish sharoitlarini tartibga solish;
3. - respublika ichki bozorida ko'p turdagi xalq iste'moli mollarni sotib olishga talon va ko'pon tizimlarining joriy qilish;
4. - import tovarlavr kiritishni tartibga solish.

Bu barcha chora-tadbirlar muayyan darajada respublika xalq iste'moli tovarlari bozorini himoya qilishga imkoniyat yaratdi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi aholisining ijtimoiy himoya qilinganligini xam bildirar edi. Qishloqda shaxsiy tomorqa xo'jaligining rivojlanishi. Shaxsiy qishloq tomorqa xo'jaligi har doim aholi turmush darajasini oshiruvchi muhim manba bo'lib kelgan. Biroq sho'rolar xokinniyati yillarida aholi shaxsiy extiyojlarini qondirishda ijtimoiy xo'jaliklar imkoniyatlariga ortiqcha baxo berish oqibatida shaxsiy tomorqa xo'jaiiklarining roli pasaytirildi. Bu esa respublika aholisini turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu munosabat bilan respublika mustaqillikni qo'lga kiritgach, bu masala yana **kun** tartibiga qo'yildi va mustaqil rivojlanishning dastlabki yiliaridayoq xal qilindi.

Shunday qilib, ilgari sho'rolar xokimiyati yillarida shaxsiy tomorqa xo'jaliklar tashkil etish uchun kolxozchilarga, davlat xo'jaliklari ishchilari va qishloq ziyolilariga ajratilgan 200 ming gektar yerga 500 ming gektar qo'shimcha yer ajratiidi va taqsimlab berildi. Bu esa mehnatga layoqatli aholi bandligining yana bir millionga usganiigini va 9 mln. respublika aholisi turmush darajasining yaxshilanganligini anglatdi. Aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim yo'nalishi Xalqaro va respublika xayriya fondlaridan foydalanish hisoblanadt. "Ekosan" Xalqaro xayriya fondi mab!ag'laridan nafaqat respublika mintaqalarida ekologik vaziyatni sogiomashtirish uchun, balki respublika

aholisi sog'iigini yaxshilash uchun xam foydalaniladi. "Ma'naviyat va xukumat" Markazi koshida tashkil etilgan "Oltin avlod" Xalqaro fondi xisobidan yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalash va taiimni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Respublikada respublika veteranlarini qo'llab-quvvatash uchun "Nuroniyy" xayriya fondi, respublika yoshlar harakatini qo'llab-quvvatlash uchun "Kamolot" fondi, qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika Prezidentining "Umid" fondi, shuningdek "Maxalla" va "Navro'z" respublika fondlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika "Maxalla" fondi samarali ishlarni amalga oshirmoqda. O'zining uchiylik faoliyati davomida 1200 ta turli xil chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bularning barchasi muxtojlariga yordam ko'rsatish, maktablarni mustaxkamlash, maxallarni obodonlashtirish, respublika Xalqining bir necha asrlik ma'naviy qadriyatlarini tiklash, respublika aholisini birlashtirishga yo'naltirilgan. "Maxalla" fondi kam ta'minlangan oilalar uchun unlab to'y tantanalarini o'tkazishga yordam qildi, nogironlar uchun aravachalar sotib oldi, bir qator talabalarning Jahon Iktsiodiyoti va diplomatiya universitetida o'qishlari uchun pul o'tkazib berdi, 100 dan ortiq maxalla Qo'mitalariga jamoaviy tantanalarni o'tkazish uchun idish-tovoqlar sotib oldi. Fond 250 dan ortiq bemoriarni imtiyozli sharoitlarda AQSH, Buyuk Britaniya, Malayziya malakali vrachlar qo'lida davolanishini tashkillashtirdi. "Maxalla" fondi faoliyatiga qator vazirliklar, assotsiatsiyalar, respublikaning yirik korxonalari va maxalliy xokimiyat organlari moliyaviy yordam ko'rsatmoqdalar.

Respublika aholisi jamg'armalarini indeksatsiya qilish, xam ijtimoiy himoyalash shakllaridan hisoblanadi. Aholi jamg'armalarining bir qismi an'anaviy tarzda doimo omonat kassalarida, banklarda va davlat sug'urta polislarida saqlanib kelingan. Ular aholi tomonidan asosan 1992 yilgacha qo'yilgan edi. Bu jamg'armalar baxoiarning erkinlashtirilishi, ularning yuqori sur'atlarda o'sishi, inflyatsiyaning yuqori sur'atlari natijasida keyinchalik o'z qadr-qimmatini yo'qotdi. Aholining bu mablag'lan davlat tomonidan respublika xalq xo'jaligini rivojlantirish yo'lida foydalaniigan edi. Shu munosabat bilan bu yo'nalishda aholini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini izlab topish zaruriyati paydo bo'idi. Respublika rahbariyati esa bunday imkoniyatni topdi. 1991 yildan so'ng 5 million respublika aholisining **qo'yilmalari** o'z harid qobiliyatini yo'qotdi. Shuni xisobga olgan xolda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1995 yil 20 dekabrda "Aholining kuyilmalardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Bu farmon 1996 yildan boshlab bosqichma-bosqich to'lash bilan quyidagi mablag'larning indeksatsiyasini amalga oshirishni ko'zda tutadi

- 1992 yil 1 yanvar xolati bo'yicha va 1996 yil 1 yanvargacha harakatda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi bank muassasalaridagi aholi pul mablag'lari;
- 1992 yil 1 yanvar xolati bo'yicha va 1996 yil 1 yanvargacha harakatda bo'lgan davlat sug'urta Bosh boshqarmasi muassasalaridagi hayotni, nikoh kunida bolalarni uzoq muddatli sug'urtalash shartnomalari bo'yicha aholi to'lovlari;
- respublika banklari har yili tiklangan aholi pul mablag'lariga, pul kuyilmalariga "talab qilingunga qadar" qo'yilmalari bo'yicha o'rnatilgan harakatdagi foiz stavkasidan kelib chiqqan xolda foizlar ajratishlari lozim. Inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan xolda foiz stavkasi miqdori har yili qayta ko'rib chiqilishi ta'minlanadi;
- aholi pul mablag'larini indeksatsiya qilish ularni 4000 barobar oshirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, respublika aholisini xalq xo'jaligida shakllanayotgan va rivojlanayotgan bozor munosabatlarning salbiy oqibatlaridan himoya qilish bo'yicha

O'zbekiston Respublikasining yuqorida sanalgan tadbirlari respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni o'rnatishni kafolatlaydi, daromadlar darajasi bo'yicha aholi qatlamlari o'rtasidagi ijtimoiy tabaqalashuvning chuqurlashuvini oldini olishga imkon yaratadi, qashshoqlikning kuchayishiga yo'l qo'ymaydi, aholining tobora o'sib borayotgan faolligi va barqaror iqtisodiy o'sish esa respublika aholisi barcha qatlamlarining turmush darajasini yaxshilanishiga olib keladi.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning turli bosqichlarida O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari

1. Fuqarolarning mehnat qilish borasidagi konstitusiyaviy huquqlarini ta'minlash.
2. Ijtimoiy himoyalashning maqsadli va aniq yo'naltirilganligi.
3. Aholining ijtimoiy jihatdan eng muxtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlash.
4. Iqtisodiy jihatdan faol aholi mehnatini rag'batlantirish.
5. Real mehnat bozorini shakllantirish.
6. Ijtimoiy soha, sog'likni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, ilm-fanning mushkul ahvolga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik.

Xal etilishi muhim bo'lgan vazifalar

1. Ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Pulning qadrsizlanishiga qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, aholi turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l kuymaslik, ish bilan bandlik muammolarini xal qilish.
2. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishga davlat mablag'lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamiyat va xayriya tashkilotlari va jamo'armalarining mablag'larini keng jalb etish.
3. Odamlar kuch va qobiliyatlarining to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish. O'z qobiliyat va mehnatiga tayanib ish tutish - farovonlikning birdan-bir va eng barqaror manbai bo'lib qoladigan munosabatini vujudga keltirish.
4. Aholi daromadlarida va turmush darajasida asossiz va katta farqlarga yo'l qo'ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni vujudga keltirish.
5. Qashshoqlikka qarshi kurash. Aholi eng muxtoj qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Aholini ijtimoiy jixatldan qo'llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan huquqiy xujjatlar

1. OITS bilan kasailanishning oldini olish to'g'risida 14 iyun 1991 yil,
2. Davlat sanitariya nazorati to'g'risida 3 iyul 1992 yil.
3. Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida 29 avgust 1996 yil.
4. Dori vositaiari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida 25 aprel 1997 yil,
5. Odamning immunitet tanqisligi virusi to'g'risida 19 avgust 1999 yil.
6. 1994 yil 24 avgust Prezident "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida" farmon.